

Mahliyo HUSAYNOVA,
TATU Farg'ona filiali O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

TATU FF Xorijiy tillar kafedrasida dotsenti PhD G.Obidova taqrizi asosida

O'ZBEK LATIFALARI MATNIDA KULGI QO'ZG'ATUVCHI MORFOLOGIK VOSITALARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek latifalari matnida kulgi qo'zg'atuvchi morfologik vositalar va ularning pragmatik xususiyatlari haqida so'z boradi. Latifalarning paydo bo'lish tarixiga nazar solinadi. Shuningdek, latifalarning paydo bo'lish tarixiga nazar solinadi. Yevropa ilmida va o'zbek tilshunosligida latifalar matnining o'rganilishiga oid manbalarga ahamiyat qaratiladi. Latifalar matnining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi morfologik usul va vositalar, jumladan, juft va takror so'zlar orqali kulgining yuzaga kelish holatlari tahlil qilinadi. Mazkur misollar latifalarning bosh qahramoni bo'lmish afandi obrazi bilan bog'liq misollar orqali izohlanadi va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: So'z o'yini, latifa, kalambur, pressupozitsiya, tag ma'no.

PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF LAUGHTER-INDUCING MORPHOLOGICAL DEVICES IN THE TEXT OF UZBEK ANECDOTES

Annotation

This article talks about morphological devices that cause laughter in the text of Uzbek anecdotes and their pragmatic features. The history of the appearance of anecdotes is reviewed. The history of the appearance of anecdotes is also reviewed. In European science and Uzbek linguistics, importance is attached to sources related to the study of the text of anecdotes. Morphological methods and tools that cause the creation of the text of anecdotes, including the occurrence of laughter through double and repeated words, are analyzed. These examples are explained and conclusions are given through examples related to the character of Effendi, the main character of the anecdotes.

Key words: Word game, anecdote, pun, dialectism, agnomasia, universal words, neologism, presupposition, subtext.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СМЕХОМИЧЕСКИХ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ В ТЕКСТЕ УЗБЕКСКИХ АНЕКДОТОВ

Аннотация

В данной статье говорится о морфологических приемах, вызывающих смех в тексте узбекских анекдотов и их прагматических особенностях. рассмотрена история появления анекдотов. Также рассмотрена история появления анекдотов. В европейской науке и узбекском языкознании большое значение придается источникам, связанным с изучением текста анекдотов. Анализируются морфологические приемы и средства, обуславливающие создание текста анекдотов, в том числе возникновение смеха посредством двойных и повторяющихся слов. Эти примеры поясняются и делаются выводы на примерах, связанных с персонажем Эффенди, главного героя анекдотов.

Ключевые слова: Словесная игра, анекдот, каламбур, диалектизм, агномазия, универсальные слова, неологизм, пресуппозиция, корневое значение.

Kirish. Latifalar ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan badiiy janrlaridan biri sifatida asrlar osha yashab, sayqallanib kelmoqda. Latifa janrining vujudga kelishi va janr xususiyatlari haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Olimlar mazkur janrning paydo bo'lish jarayonini uzoq o'tmishga bog'lashadi. Suvanqulov esa latifa elementlari hattoki «Avesto»da ham uchrashini ta'kidlab o'tgan. I.Braginskiy esa ayrim qadimgi so'g'd hikoyatlari («Savdogar va marjon teshuvchi xizmatkor hikoyati» kabi) latifa janriga uyg'unligini ta'kidlaydi. B.Privalov o'tgan asrlarda xalq latifalari bozorlarda turli tabaqa vakillarining munosabatlari asosida kelib chiqadigan kulguli vaziyatlarga bog'liq holda vujudga kelganini ta'kidlab o'tgan. A.N.Veselovskiy hayvonlar haqidagi epos qo'shiq janridan keyin paydo bo'lgan, epos materialini ertak va masallar tashkil etganligini, satirik maqsadlar esa keyinroq paydo bo'lganini ta'kidlaydi. Y.D.Tursunov ham shunga o'xshash fikrni aytib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, latifalar maishiy ertaklarning bir turi bo'lgan go'l (laqma)lar haqidagi ertaklar zaminida paydo bo'lgan. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, latifa janrining vujudga kelishi xususida turli xildagi qarashlar mavjud. Bizningcha, esa bu borada B.Privalov fikri haqiqatga yaqinroq. Zero, latifalarning asosiy qismidagi bosh qahramon dono va topqir, hozirjavob va gapga usta inson sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi latifa janri xususida o'zbek folklorshunoslari H.Zarifov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova, O.Sobirov, A.Qahhorov, J.Qobulniyozov, M.Saidov, T.Mirzayev, K.Imomov, M.Murodov, B.Sarimsoqov, T.Ashurov, O.Safarov, A.Musaqulov, M.Jo'rayev, U.Jumanazarov, Sh.Turdimov, J.Eshonqul va boshqalar o'z qarashlarini turli tadqiqotlarda bayon etishgan. Latifa janri va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida R.Muqimov, H.Razzoqov, O.Sobirov, F.Yo'ldosheva, B.Sarimsoqov, K.Imomov kabi folklorshunos olimlarning tadqiqotlarida diqqatga sazovor. Folklorshunoslar latifa janrining beshta xususiyatlarini ko'rsatishadi. Bular: 1) epik turga mansubligi; 2) hajman qisqa bo'lishi; 3) mazmunan hazil va hajvga asoslanganligi; 4) tugallangan syujetli bo'lishi; 5) kutilmagan yakundan iboratligi.

Xususan, o'zbek xalq latifalari janr xususiyatlarini tadqiq qilgan olim B.Suvanqulov mazkur janr bo'yicha olib borilgan izlanishlarni uch guruhga ajratib, tavsiflaydi: «Birinchii guruh – janrning g'oyaviyligi, mavzulari va obrazlarini yoritgan ishlar. Bu guruhga R.Muqimov, Yo.Jo'rayev, H.Razzoqov, F.Yo'ldoshevalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Ikkinchi guruh – latifalarning namunalarini to'plab va nashr etishga oid ishlar. Mazkur guruhga Sh.Rizo, S.Abdulla, A.Rahmat, H.Razzoqov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, Yo.Jo'rayev, B.Sarimsoqov, F.Yo'ldosheva va boshqalarning tadqiqotlari mansub. Uchinchi guruh – xalq latifalarining janr xususiyatlarini aniqlashga oid ishlar. Ushbu guruhga O.Sobirov, B.Sarimsoqov, F.Yo'ldosheva, K.Imomovlarning ishlari mansub». Ko'rib o'tganimizdek, latifa janri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda mazkur janrga oid namunalarining to'planishi, nashr ettirilishi va janr xususiyatlari keng yoritilgan. Latifa janrining xususiyatlari borasida olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi xulosalar chiqarilgan: R.Muqimov mazkur janrga to'xtalar ekan, uning bayon uslubini: «Latifa bayon qilishning kichik hikoya formalaridan...» tashkil topishini, shuningdek, «Latifalarning xushchaqchaq, optimizm to'la mazmuniga muvofiq ularning ixcham, xalqchil formasi ham mavjud. Shu sababdan har bir latifada konflikt, tip yaratish yo'li,

obrazni xarakterlar usuli ham mazmunga yarasha ixcham, chingillama tus» olishini ta'kidlab o'tadi. «Latifalar uchun qahramonlarning chuqur xarakteristikasi xos emas: ularning ko'pchiligi asosini konkret situatsiya va uning hal etilish usuli tashkil etadi» deya bu boradagi qarashlarini ta'kidlagan. H.Razzoqov esa «Latifa epik tur janrlarining hammasi, xalqning satirik, yumoristik komediyalari, qisman qochirim, so'z o'yinlari... Bu bilan birga, u askiya-payrovlar bilan bir butunlikni tashkil qiladi», – deya latifa janri xususiyatlarini ko'rsatadi.

Natijalar va muhokama. Latifa (arab-mutoyiba, hazil) — xalq hajviyoti janrlaridan, tanqidiy mazmundagi qisqa yumoristik hikoya. Qadimdan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Latifalar qahramoni jonli va ta'sirchan so'zlaydigan, hazil mutoyibaga boy, haqiqat va adolatni himoya qiluvchi hozirjavob shaxs. Latifa syujetini qochiriq, kesatik, piching to'la hajviy epizod va holatlar tashkil etadi. Sarguzasht harakteridagi syujet sodda va lo'nda ifoda etiladi. Latifaning ilk namunalari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Sa'diyning "Guliston" asarlarida uchraydi. Latifa janri XI asrdan so'ng keng shakllandi va rivoj topdi.

Tadqiqot ishimiz davomida bir nechta latifalarni tahlil etar ekanmiz, latifalar matnining lingvostilistikasiga oid fonetik, leksik, grammatik, sintaktik vositalardan nutqda qanday foydalanilganligi, ulardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanligiga guvoh bo'lamiz. Latifalar orqali kulgi yuzaga kedishidagi asosiy omillardan yana biri bu morfologik usul va vositalarnibjumladan juft va takroriy so'zlarni qo'llash hisoblanadi. Quyida shu mavzuga oid latifalarni tahlil qilamiz.

Restoranda ikkita o'zbek ofisiantga buyurtma berishyapti:

— Bizga choy-poy, non-pon, ovqat-povqat olib keling.

Nariroqda o'tirgan rus ayol ularni gapini eshitib:

— Nimaga sizlar har bir so'zga qo'shimcha qo'shib gapirasizlar? Choy, non, ovqat desangiz bo'lmaydimi? Agar gaplaringizga qo'shimcha qo'shmasdan gapirsangiz, bir tarelka tilla beraman, – debdi.

Shunda o'zbeklardan biri:

— Tarelka-parelkasi bilan berasizmi?

Mazkur latifada ikkinchi qismi fonetik o'zgarishga uchrashi natijasida hosil bo'lgan takroriy so'zlar natijasida kulgili holat yuzaga kelgan.

Bir kuni afandi kabobxonani yonidan o'ta turib, kabobdan chiqayotgan tutun hidini hidlabdi. Ziqna kabobpaz "Seni bir boplay!" deb afandini to'xtatib, unga do'q uribdi:

— Kabobdan chiqayotgan tutunni hidlaganing uchun pul to'la! – desa, uddaburon afandi cho'ntagidan tangalarini chiqaribdi-da, "jaranglatib-jaranglatib" yana cho'ntagiga solib yo'lida ketavergan ekan.

Mazkur latifada jaranglatib-jaranglatib takroriy so'zidagi yashirin маъно orqali kulgi yuzaga kelgan. Ya'ni siz ham tanganing jarang-jurungini eshitdingiz, mana shu ovoz mening to'lovimdir degan mot qilish shakliga ega kosa tagidagi nimkosa маъно mujassam.

Xulosa. Latifalar o'zbek xalq og'zaki ijodining paydo bo'lish tarixi asrlar qa'riga borib taqaladigan janrlardan biridir. So'z o'yiniga asoslangan mazkur janrning xususiyatlari, asosan, quyidagilarda namoyon bo'ladi: latifalar matni o'zining hajviy-yumoristik mazmuni bilan tinglovchining diqqat-e'tiborini tortadi va undagi yengil hazil-mutoyiba yoki hajviy-zaharxanda kulgi muayyan bir badiiy-estetik maqsadga qaratiladi. Shu maqsadda har bir latifa matnida kulgi yaratishning turli vosita va usullaridan keng foydalaniladi. Ular yordamida kulgili vaziyatlar vujudga keltiriladi va latifa mazmunidan ko'zlangan asosiy maqsad ochib beriladi; latifalarda boshqa badiiy uslubdagi matnlardagi kabi ko'chma ma'nolilik, shakldoshlik hodisalari asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Ularda leksik va frazeologik birliklarning o'z va ko'chma ma'nosiga asoslangan holda kulgi yaratish hodisasi ko'p uchrab turadi. Latifalar matnini leksik-semantik jihatdan har tomonlama chuqur tahlil etish natijasida tilimizning ma'lum bir davrdagi tarixiy shakllanish jarayoni, til hodisalari, lug'at tarkibi va uning boyish yo'llari, til birliklaridan foydalanish imkoniyatlari haqida muayyan ma'lumotlar olish manbalaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Соссюр Ф. де Труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1977. – 206 с.(Saussure F. de Works on linguistics. - M.: Progress, 1977. - 206 p.)
2. Витгенштейн Л. Философские исследования//Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16.– М., 1985. –С. – 34.(Wittgenstein L. Philosophical research//New in foreign linguistics. Issue 16. - M., 1985. -S. – 34)
3. Стилистический энциклопедический словарь русского языка. [электронный ресурс] / под ред. М.Н.Кожинной; члены редколлегии: Е.А.Баженова, М.П.Котюрова, А.П.С ковородников. – 2-е изд., стереотип. — М.: Флинта: Наука, 2011. –С. 696.(Stylistic encyclopedic dictionary of the Russian language. [electronic resource] / ed. M.N. Kozhina; members of the editorial board: E.A. Bazhenova, M.P. Kotyurova, A.P. S kovorodnikov. - 2nd ed., stereotype. - M.: Flinta: Nauka, 2011. -S. 696.)
4. Ходакова Е.П. Каламбур в русской литературе XVIII в. / Е.П. Ходакова// Русская литературная речь в XVIII в.: Фразеологизмы. Неологизмы. Каламбуры. – М.: Наука, 1968. – С. 201–254; Земская Е.А. Речевые приемы комического в советской литературе // Исследования по языку советских писателей/ Е.А. Земская. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 215–278; (Khodakova E.P. Pun in Russian literature of the XVIII century. / E.P. Khodakov // Russian literary speech in the XVIII century: Phraseologisms. Neologisms. Puns. - M.: Nauka, 1968. - S. 201-254; Zemskaya E.A. Speech techniques of the comic in Soviet literature // Studies in the language of Soviet writers / E.A. Zemskaya. - M.: Publishing House of the Academy of Sciences of the USSR, 1959. - S. 215–278)
5. Голев Н.Д. Русский анекдот как игровой текст: внутренняя форма и содержание/ Н.Д. Голев// Человек–коммуникация – текст. Вып. 4 / под ред. А.А. Чувакина. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2000. – С. 27-33. (Golev N.D. Russian anecdote as a game text: internal form and content / N.D. Golev// Man - communication - text. Issue. 4 / ed. A.A. Dude. - Barnaul: Alt. un-ta, 2000. - S. 27-33.)
6. Сопова Т.Г. Языковая игра в контексте демократизации художественной речи в последние десятилетия XX века: Автореф. дисс... кан. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2007. –С. 22. (Sopova T.G. Language game in the context of the democratization of artistic speech in the last decades of the 20th century: Abstract of the thesis. diss...can. philol. Sciences. - St. Petersburg, 2007. -S. 22)

7. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. –Самарқанд, 2010. –Б. 192; Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. Монография. –Самарқанд, 2017. –Б. 152; (Karimov S. Functional stylistics of the Uzbek language. - Samarkand, 2010. -B. 192; Karimov S. Phonetic stylistics of the Uzbek language. Monograph. -Samarkand, 2017. -B. 152;)
8. Туланова Н. Тўқсонинчи йиллар ўзбек шеърини тилидаги бадий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили: Филол. фан. номз... дисс. автореф. –Тошкент, 2012. –Б. 27.; (Tolanova N. Linguistic and stylistic analysis of artistic arts in the language of Uzbek poetry of the nineties: Filol. science. nomz... diss. autoref. -Tashkent, 2012. -B. 27.;
9. Мамажонов А., Йўлдошева З. Услубшунослик ва бадий тасвир воситалари. – Фарғона, 2020. –Б.82; (Mamajonov A., Yoldosheva Z. Techniques and tools of artistic representation. – Fergana, 2020. – B.82;)
10. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2009. –Б. 30;.(Yoldoshev M. Linguopoetic study of the literary text: Philol. science. doc. ... diss. autoref. -Tashkent, 2009. -B. 30;)
11. Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик, лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида): Филол. фан. фалсафа докт. (PhD) ... дисс. –Т., 2017. – Б. 164; (Yoldoshev U. Linguistic, linguocultural characteristics of the translation of humorous texts (in the example of Uzbek folk anecdotes translated into English): Philol. science. doctor of philosophy (PhD) ... diss. -T., 2017. -B. 164;)
12. Суванкулов Б. Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадийлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. –Тошкент, 2007. –Б. 158; (Suvankulov B. Genre characteristics and artistry of Uzbek folk anecdotes: Filol. science. name ... diss. - Tashkent, 2007. -B. 158;)
13. Мадалиев Я. Туркий халқлар оғзаки ижодида латифа жанри: типологияси, мотивлари, таснифи (ўзбек ва қозоқ латифалари мисолида): Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. –Б. 24. (Madaliev Y. Genre of anecdote in the oral works of Turkic peoples: typology, motives, classification (in the example of Uzbek and Kazakh anecdotes): Philol. science. div. doc. (PhD) ... diss. autoref. - Tashkent, 2021. -B. 24)
14. Рустамов И. Сўз яшаш сатҳидаги лисоний ўйин. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. –Жиззах, 2017. –Б. 69-70. (Rustamov I. A language game at the level of word formation. Proceedings of the international scientific and practical conference. -Jizzakh, 2017. -B. 69-70.)
15. Дўсматов Ҳ. Аския матннинг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. –Б. 24.(Dosmatov H. Linguistic study of the Askian text: Philol. science. div. doc. (PhD) ... diss. autoref. - Fergana, 2018. -B. 24.)
16. Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадий нутқида кулги кўзгатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. –Б. 23.(Abdurakhmanov Sh. Linguistic devices that cause laughter in Uzbek artistic speech: Filol. science. nomz... diss. autoref. - Tashkent, 1997. -B. 23.)
17. Hikmatullo Haitboevich Dusmatov, Mahliyo Husanova. Some stylistic events expressed in Uzbek anecdotes, 2021, 505-b.
18. Neologizmlarning O'zbek Latifalari Matnidagi Ahamiyati. M. Husaynova - Journal of Integrated Education and Research, 2022-y, 56-b.(The significance of neologisms in the text of uzbek Anecdotes. M. Husaynova - Journal of Integrated Education and Research, 2022, p. 56)
19. <https://www.litdic.ru/kalambur/>
20. <https://latifa.uz/>